


O'ZBEK TILINING TARAQQIYOTI



Norboyeva Saida Rashidovna

O'zbekiston Respublikasi

Ichki ishlar vazirligi

Surxondaryo akademik litseyi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Bu maqolada tilimizning hozirgi jamiyatdagi yutuq va kamchiliklari Ularni bartaraf etish haqida mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar. Til ,nutq, nazariya,ma'naviy,tilshunoslik ,moddiy va ma'naviy boylik

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan hayotimiz har jabhada ulkan o'zgarishlarni bu o'zgarishlarni amalga oshirayotgan tinimsiz mehnat qilib o'z maqsadi yo'lida tinmay harakat qilayotgan insonlar huddiki "soat daqiqa"lariga o'xshaydi.Daqiqalar tinmaydi har bir soat vaqtini bong urushi uchun tinmaydi.

Inson ilm olib o'rghanishi uchun olingen bilimlarning har qanday soha kasb bo'lmasin barchasining tub negizida moddiy va ma'naviy boylik manfaat yotadi. Bu tub negiz har vaqt inson uchun xizmat qilishi kerak.O'rghanilayotgan yaratilayotgan yangi bilim va kashfiyotlar hozirgi kunda inson uchun hayratlanarli va ajablanarli tuyulmayapti. Albatta,bunga sabab axborot tezligi yangi ma'lumot va yangiliklarning ko'pligidir. Ma'lumotlar nazariy va amaliy taqdim etiladi. Tilshunoslik sohasini olib o'rghanadigan bo'lsak,bu sohaga oid ma'lumot yaratilgan yangi ilmiy ishlar bizga nazariy va amaliy jihatdan axborot beriladi. Hozirgi vaqtda boshqa sohalarda yangiliklar bo'lgani kabi yangiliklar bilan birga muammolar ham uchrab turibdi.Tilshunoslikning hozirgi muammolaridan biri nazariyaning hayot bilan aloqadorlik darajasi pastligi buni biz kundalik hayotda ko'p uchratib turibmiz. Masalan, ko'chada bozorda yoinki dukonda savdo qilayotgan biror savdogarni olaylik savdogar kuni bo'yи qanchadan qancha xaridor bilan suhbat qiladi(har bir suhbatni uzog'i 20 daqiqa) bo'lsin.U qancha qancha so'zlarni mohirona chiroyli iplarga tizib qisqa bo'lsa ham muloqot qiladi. U tilshunoslik sohamizda siyqasi chiqqan ,ega kesim borinki,so'z turkumlari va gap bo'laklarini ,so'z tartibini bilmas ,lekin nutqda u aniq va ravon so'zlay oladi. Endi muammoning tub negizi haqida gaplashsak,tilshunoslik nazariyasini o'rghanish faqat olimu shu soha bilan shug'ullanayotgan o'quvchi bu fan haqida nazariy bilimlarga ega bo'lsayu ,lekin kundalik hayotda muomala layoqati ravon nutqi,mustaqlil fikri bo'lmasa, nazariy bilim qay darajada ahamiyatli nazariya faqat hozirgi kunda bizga yozma savodxonlik uchun senga yordam beryapti desak, og'zaki savodxonligimizga muhim ko'mak bermayapti.

Muammo kasb etayotgan sohalar ,mavzular,turliche ,lekin har vaqtdagidek qiyin.Hozirgi davr tilshunosligida ko‘pgina sohalar o‘zbek tilining eng to‘g‘ri yozilgan so‘zlar variantini qo’llashni talab qilmoqda.

Ona tili darslarida o‘quvchilarning yozma nutqi va imloviy savodxonligini mustahkamlash niyatida matn yaratish borasidan ko‘pgina qiziqarli topshiriqlar taqdim etish mumkin. Shuningdek, "Morfologiya" bo‘limini o‘tish vaqtida har bir so‘z turkumi borasidan grammatik ertak to‘qish vazifasi berilsa, o‘quvchilarning grammatik savodxonligi yaxshilash bilan birlgilikda mantiqiy mushohada qilish qobiliyati takomillashadi, ijodkorligi oshadi. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalardan foydalanish sohasidagi muhim yo’nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya metodlarini joriy etishdan iborat.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Abdurahmonova N. Inglizcha matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishning lingvistik ta‘minoti(sodda gaplarmisolida). - T.:www.google.com,2018.
2. Almamatov. T, Yadgarov Q., va Almamatova Sh. O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. - Toshkent.:Fan,2013.
3. R.Sayfullayeva "Hozirgi o‘zbek adabiy tili" 2017 yil .Toshkent